

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"Angren logistika Markazi" AJ

Объявление

"ANGREN LOGISTIKA MARKAZI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ МИЛЛИЙ СТАНДАРТ БЎЙИЧА БАҲОЛАШ УЧУН
БАҲОЛОВЧИ ТАШКИЛОТЛАРНИ ТАНЛОВИНИ ЎТКАЗИШ ТЎҒРИСИДА

Автотранспорт воситаларини миллий стандарт бўйича баҳолаш учун баҳоловчи ташкилотларни танловини ўтказиш тўғрисидаги

эълон

2024 йил 15 январь куни “Ангрен логистика маркази” АЖ кузатув кенгаши йиғилишида “Ангрен логистика маркази” АЖнинг балансидаги сўнги уч йил мобайнида фойдаланилмаган ва таъмирталаб автотототранспорт воситаларини белгиланган тартибда баҳоловчи ташкилотлар билан шартнома тузиб баҳолатиш тўғрисида қарор қабул қилинган.

Ушбу қарор билан жамият ижроия органига 2024 йил 1 февраль ҳолатига жамият балансидаги таъмирталаб ва сўнги уч йил мобайнида фойдаланилмаган автотототранспорт воситаларини ва бошқа асосий воситаларини белгиланган тартибда хатловдан ўтказиб рўйхатини шакллантириш, 2024 йил 10 февралга қадар “E-auction” электрон савдо платформаси орқали жамият балансидаги таъмирталаб ва сўнги уч йил мобайнида фойдаланилмаган автотототранспорт воситаларини реализация қилиш учун баҳолатиш ва баҳолаш ҳисоботларини экспертизадан ўтказиш мақсадида мустақил баҳоловчи ташкилотларни “Давлат харидлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни талабларига мувофиқ электрон савдолар биржаси орқали аниқлаш вазифаси юклатилган.

Автотототранспорт воситаларини миллий стандарт бўйича баҳолаш учун баҳоловчи ташкилотларни танлови “Ангрен логистика маркази” АЖнинг 2024 йил 15 январдаги LC/5-сонли буйруғи билан тасдиқланган энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича техник ҳужжат ва энг яхши таклифларни танлаш бўйича харид комиссиясининг иш тартибига мувофиқ ўтказилади.

Автотранспорт воситаларини миллий стандарт бўйича баҳолаш учун баҳоловчи ташкилотларни танловида иштирок этиш учун талабгорлар 2024 йил 22 январга қадар шахсий ҳужжатларини жамиятнинг clangren@bk.ru (<mailto:clangren@bk.ru>) электрон манзил орқали тақдим этишларини мумкинлиги тўғрисида маълум қиламиз.

Танловда иштирок этувчи талабгорлар “Ангрен логистика маркази” АЖ балансидаги баҳоланадиган автотототранспорт воситаларини ҳолатини кўздан кечириши ва баҳолашга доир ҳужжатлар билан Тошкент вилояти, Ангрен шаҳар, Ипак йўли кўчаси, 1-уйда жойлашган “Ангрен логистика маркази” АЖнинг маъмурий биносида иш кунлари соат 10:00дан соат 17:00гача ёки жамиятнинг 78-150-10-30, 78-150-08-82 - сонли телефонлари, www.clangren.uz ([http://www.clangren.uz/](http://www.clangren.uz)) расмий веб-сайти орқали яқиндан танишишлари мумкин.

Ижро органи

“Angren logistika markazi” AJning

2024-yil 15-yanvardagi

5-son buyryg’iga

1-ilova

Eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo’yicha TEXNIK HUJJAT

Buyurtmachi – “Angren logistika markazi” AJ

Eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo’yicha MA’LUMOT

T/r Umumiy ma’lumotlar	Izoh
1. Buyurtmachining nomi	“Angren logistika markazi” AJ
2. Buyurtmachining manzili	Toshkent viloyati, Angren shahri, Ipak yo’li ko’chasi’ 1-uy.
3. Buyurtmadan ko’zlangan maqsad	Jamiyatdagi _____ ni baholovchi jalb etgan holda baholash
4. Boshlang’ich narxi	_____ so’m
5. Tanlash uslubi	Baholash orqali
6. Moliyalashtirish manbai	Jamiyat mablagi
7. Avans to’lovi	30% (umumiy qiymatidan)
8. Qolgan to’lovi	70% (Umumiy qiymatidan)
9. To’lov shakli	Naqd ko’rinishida emas
10. To’lov valyutasi	Milliy valyuta (so’m)
11. Loyihani amalga oshirish muddati	30 kun (bir oy)
12. Loyihani yakunlash	tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi.

“Angren logistika markazi” AJning

2024-yil 15-yanvardagi

5-son buyryg’iga

2-ilova

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'YICHA XARID KOMISSIYASINING ISH TARTIBI

(REGLAMENT)

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid komissiyasining ish tartibi 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonuni talablari doirasida amalga oshiriladi.
- 1.2. Mazkur xarid komissiyasining ish faoliyati, mezonlari va baholash tartibi "Angren logistika markazi" AJning tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
- 1.3. Boshlang'ich narxini belgilash, e'longa 5 ish kunidan kam bo'lmagan vaqtga chiqarish, texnik topshiriq va texnik hujjatlari ishlab chiqadi hamda xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi (*yoki boshqa hujjatlar bilan*).
- 1.4. Eng yaxshi takliflarni tanlash va g'olibni aniqlash mezonlari tovar (*ish, xizmat*) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifatiga ham e'tibor qaratadi.
- 1.5. Ishtirokchilar tomonidan noto'g'ri, yolg'on va/yoki shunga o'xshash maqsadga nomuvofiq bo'lgan hujjatlar biriktirilgan taqdirda xarid komissiyasi tomonidan "0" baho bilan baholash va/yoki bunday ishtirokchini xarid jarayonidan chetlashtirish vakolatini o'zida saqlab qoladi.

II. Xarid komissiyasining ish faoliyatini tashkil qilish va kelib tushgan takliflarni o'rganib chiqish hamda baholash.

2.1. Xarid komissiyasi tomonidan texnik topshiriq hamda texnik hujjat ishlab chiqiladi, boshlang'ich narxini aniqlash imkoni bo'lmaganida ixtisoslashgan tashkilotlarga so'rovnomaga yuboriladi va so'rovnomaga asosan kelib tushgan takliflar orasidan eng arzon taklif etilgan tijorat taklifi boshlang'ich narx sifatida belgilanadi, shuningdek zururiyatga ko'ra boshqa hujjatlar ishlab chiqiladi hamda komissiya kotibi tomonidan bayonnomaga ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

2.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid komissiyasi tomonidan kelib tushgan takliflar o'rganib chiqiladi, tahlil qilinadi, komissiya raisi ishtirokida yig'ilish tashkil etiladi va baholash ishlari komissiya kotibi tomonidan bayonnomaga ko'rinishida rasmiylashtiriladi, shuningdek xarid komissiyasi quyidagilarni alohida ko'rib chiqadi va o'rganadi, xususan:

- xarid jarayonida xarid komissiyasi tomonidan ishtirok etayotgan ishtirokchilarning takliflari o'rganiladi;
- ishtirokchilarning malakasi va tajribasi;
- tashkilotning tajribasi va malakasi;
- loyihani amalga oshirish muddatlari;
- Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarz yo'qligi to'g'risida ma'lumot;
- Professional Jamoat birlashmalariga a'zligini tasdiqlovchi sertifikat;
- taqdim etiladigan boshqa hujjatlar, ularning rasmiylashtirilishi (*imzo, muhr*), ma'lumotlardagi sifat va ko'rilgan puxta tayyorgarligi, taqdim qilingan hujjatlar imkoniyat darajasida tekshiriladi;
- taqdim etilayotgan ma'lumotlarda noto'g'ri, yolg'on ma'lumotlar taqdim etilmaganligi (*mavjud imkoniyatdan kelib chiqqan holda*);
- taqdim etilayotgan ma'lumotlarda noto'g'ri, yolg'on ma'lumotlar aniqlangan taqdirda ularga nisbatan ko'riladigan choralar va oqibatlarining chuqur tahlili (*mavjud imkoniyatdan kelib chiqqan holda*);

2.3. Komissiya kotibi tomonidan rasmiylashtirilgan bayonnoma asosida xarid komissiyaning baholagan ballari tizimga kiritiladi va xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan baholar xarid komissiyasi tomonidan elektron imzo orqali tasdiqlanadi.

2.4. Xarid ishtirokchilari minimal o'tish ballarini to'play olmagan taqdirda keyingi bosqichga avtomatik ravishda tizim tomonidan o'tkazilmaydi.

2.5. G'olib aniqlanganidan so'ng 2 kunlik muddatga portalga joylashtiriladi, muhokama yakunlanganidan so'ngina tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi va tegishli tarkibiy bo'linmalar shartnoma loyihasi qayta ko'rib chiqilib tizimga yuklanadi.

2.6. Xarid komissiyasi tomonidan ovozga qo'yish natijalari (*ichki xarid bayonnomalari*) haqidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi.

2.7. G'olib bo'lgan ishtirokchi tomonidan shartnoma loyihasi ko'rib chiqiladi va imzolanadi.

2.8. Shartnoma rasmiylashtirilgan kundan boshlab texnik topshiriqqa muvofiq tegishli ishlar boshlanadi.

Texnik qismini baholash bo'yicha MA'LUMOT

1-jadval

T/Mezonlar r va talablar	Baholash usuli	Ball
1. Loyihani amalga oshirish bo'yicha jalb qilinayotgan mutaxassislarning malakasi va tajribasi	Xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi	25 ball
2. Loyihani amalga oshirish bo'yicha jalb qilinayotgan kompaniyaning (baholovchi) malakasi va tajribasi	Xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi	20 ball
3. Loyihani amalga oshirish muddati	Xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi	15 ball
4. Loyihani amalga oshirish bo'yicha jalb qilinayotgan kompaniyaning Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarz yo'qligi to'g'risida ma'lumot	Xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi	10 ball
5. Baholovchi tashkilotlar Professional Jamoat birlashmalariga a'zolicini tasdiqlovchi sertifikat	Xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi	15 ball
6. Ishtirokchning moliyaviy ahvoli haqida ma'lumodnoma (F1 va F2)	Xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi	15 ball
Texnik qismining jami baholanishi:		100 ball

Texnik qismini baholash bo'yicha

Xarid komissiyasi tomonidan kelib tushgan takliflardan eng yaxshisini tanlab olish maqsadida, takliflar o'rganib chiqiladi va baholash ishlari amalga oshiriladi. Taqdim etilgan takliflar orasidan noto'g'ri va/yoki yolg'on ma'lumotlar xarid komissiyasi tomonidan aniqlangan taqdirda bunday ishtirokchiga "0" ball yoki xarid jarayonidan chetlashtiriladi (*diskvalifikatsiya*). Shuningdek, minimal keyingi bosqichga o'tish ballarini to'play olmagan xarid ishtirokchilari keyingi bosqichga avtomatik ravishda o'tkazilmaydi.

17.01.2024

Источник: <https://openinfo.uz/uz/announce/16666/>

Дата: 25.06.2026